

va xatti – harakatlarda o‘z nuqtayi nazarini amalga oshirish ehtiyojiga ega bo‘lishidan iboratdir.

Demak, bizningcha ekologik ong insonning tabiat bilan o‘zaro ta’siri sohasidagi bilim va e’tiqodni mujassam etadi. Ekologik bilim odamlar o‘zlarining hozirgi va kelgusidagi biosfera bilan qanchalik bog‘langanligini, tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilana foydalanish va har bir insonda atrof muhit holati uchun mas’ullik hissinin tarbiyalash obyektiv zaruriyat ekanligini tushunib etishining muhim sharti hisoblanadi. Yuqori sinf o‘quvchilarida ekologik ongning mazkur jihati ularning faol hayotiy pozitsiyasi, mustahkam xarakter va kuchli irodasi darajasi bilan tavsiflanadi. Ekologik ongning ifodaviylik jihati tabiatga munosabat chog‘ida shaxs faoliyatidagi ekologik harakat va harakatsizlik mazmuni bilan o‘lchanadi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ekologik madaniyatni rivojlantirish tamoyillari bilan “inson, tabiat va jamiyat” tizimining koevolyutsion konsepsiyasining birligi asosida “ekologik ong → ekologik xulq → ekologik faoliyat”ning implitsitligini ta’minlash orqali aniqlashtiriladi.

Shunday ekan, insonning ekologik ongining irodaviylik jihati uning kamolotida muhim ahamiyatga ega. Chunki tabiatga nisbatan salbiy ta’sirlar ko‘lami va sonining oshib borishi shaxsdan ularga nisbatan keskin kurasha olishi, bu

borada qat’iyatli, tashabbuskor, mustaqil hamda mas’uliyatli bo‘lishini taqozo etadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan ekologik salohiyat – ekologik va ijtimoiy o‘zgarishlar borasida chuqur, to‘laqonli bilim, nazariy va amaliy ko‘nikma, malakaga, shuningdek, keng dunyoqarashga ega bo‘lish, ekoiijtimoiy tadbirlar mohiyatini keng ko‘lamda tushuna olish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni bildira olish, ekologik va ijtimoiy munosabatlarning ayni holatiga real baho berish, tabiat muhofazasi yo‘lida shaxsiy namuna va tashabbus ko‘rsatish, erkin ekologik faoliyatini tashkil etish borasida muayyan qobiliyatga ega bo‘lishi demakdir. Ekologik salohiyat tushunchasi ekologik bilimdonlik tarzida hali talqin etilishi mumkin. Zero, ekologik bilimdonlik yuqorida qayd etilgan holatlarning amaldagi ko‘rinishiga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytilganda, ekologik salohiyat yoki ekologik bilimdonlik yuqori sinf o‘quvchilardan muntazam ravishda ekologik bilimlarini oshirib borishi, ekologik o‘zgarishlar borasida fikr yuritish, mavjud holatlar sabablarini aniqlash, ularni tahlil etish, salbiy ta’sirlarini bartaraf etish borasidagi shaxsiy mulohazalarini o‘rtaga tashlash o‘z fikrini asoslay olish imkoniyatiga ega bo‘lishni taqozo etadi. Bu esa maktablarda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlashning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 9-декабрьдаги «Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги 754-XII-сонли Қонуни.

2. Сатторов В.Н. Умумий ўрта таълим мактабларининг 5-9 синф ўқувчиларида экологик маданиятни шакллантириш (кишлоқ хўжалик меҳнати таълими мисолида): Пед. фан. номз... дисс. –Т.: 2002. -184 б.

REZYUME. Bu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, omillari va maktab o‘quvchilarini tabiatni muhofaza qilish ishlariga jalb qilish ishlarini amalga oshirish haqida bayon qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассмотрены педагогико-психологические особенности и факторы подготовки учащихся общеобразовательных средних учреждений к эколого-пропагандистской деятельности, а также реализация работ по вовлечению школьников в природоохранную деятельность.

SUMMARY. The article examines the pedagogical and psychological characteristics also factors of preparing students for environmental propaganda activities in secondary educational institutions, as well as the implementation of work to involve schoolchildren in environmental activities.

O‘QUVCHILARNING MULOQOT MADANIYATINI AKSILOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH ILMIY-METODIK MUAMMO SIFATIDA

I.Ibodullayeva – tayanch doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: mustaqil fikr, tanqidiy tahlil, PISA, PIRLS, TIMSS, Ijodiy, tanqidiy, kreativ, kollobarativ, madaniyat, qadriyat, aksiologik yondashuv.

Ключевые слова: независимое мышление, критический анализ, PISA, PIRLS, TIMSS, творческий, критический, креативный, коллаборативный, культура, ценности, аксиологический подход.

Key words: independent thinking, critical analysis, PISA, PIRLS, TIMSS, creative, critical, creative, collaborative, culture, values, axiological approach.

Kirish. Bugungi jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan dunyoda muloqot madaniyati, samarali muloqot o‘rnatish yoki muloqotga kirishish jamiyatning ajralmas me’zonlaridan biri bo‘lib bormoqda. Xususan, dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari ta’lim tizimlaridan, ta’lim sohasidagi innovatsion va integratsion yutuqlaridan, jahon ekspertlarining pedagogik metodlari hamda mahoratlardan samarali foydalanish orqali sifatli ta’lim muhitini tashkil etish har bir shakllanayotgan mamlakat ta’lim tizimining ustuvor strategik maqsadlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Navbatdagi Renessans davri bir qator masalalarni jumladan ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda yangi islohotlarni, tadqiqotlarni va

innovatsiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Shakllangan davlatlarning bu boradagi tajribalarini milliyashtirish, milliy ta’lim tizimiga moslashtirish hamda sinovdan o‘tkazish, milliy va xalqaro intellektual resurslarni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim tizimini, jamiyatni isloh qiladigan imkoniyatlar yaratish ijtimoiy zaruratga aylanmoqda.

Asosiy qism. Davlat rahbarining “Avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” [1], degan fikrlari asosida xalqaro

standartlarga mos keladigan milliylik bilan uyg'unlash-tirilgan yangi ta'limiy tizimni tashkil etish muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Globallashuvning jadal sur'atlarda shakllanish va texnologiyalar taraqqiyoti zamonaviy dunyoda ta'lim tizimini o'rni va ahamiyatini tubdan o'zgartirdi. Endilikda ta'lim nafaqat bilim berish, balki shaxsning barkamol shakllanishi, ijtimoiylashuvi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishini ta'minlaydigan murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz ta'lim tizimini takomillashtirish va jahon standartlarga moslashtirish borasidagi islohotlar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. "Bu islohotlarning maqsadi nafaqat bilim olish darajasini oshirish, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy tahlil qila oladigan va jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan shaxslar etib tarbiyalashdan iborat" [2].

Raqamlashtirilgan va sun'iy intellekt tomonidan boshqariladigan dunyoda shaxslararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish masalasi har qachongidan ham dolzarbroq bo'lib bormoqda. Bugungi kunda, texnologiyalar va internetning ta'siri orqali o'quvchilarning hayoti yangi bir muhitga kirib bormoqda. Ushbu jarayonning bir tomoni ularning intellektual shakllanishiga, fikrlash qobiliyatining o'sishiga va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Biroq, boshqa tomondan, texnologik shakllanish shaxslararo muloqotda ko'rinmas to'siqlar yaratmoqda. Internet orqali onlayn muloqotning yangi shakllari paydo bo'lishi bilan, odamlar o'rtasidagi samimiy muloqotning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Onlayn muloqotda emoji va boshqa vizual tasvirlardan foydalanish kengaygan bo'lsa-da, jonli muloqotda hissiyotlar, mimika va pantomima kabi insoniy omillar muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, o'quvchilarni erkin va ijodiy fikrlashga, boshqalar bilan bemalol muloqot qilishga, turli nutqiy vaziyatlarga moslashishga qodir bo'lishlarini ta'minlash zarur. Ular o'z ona tilini mukammal o'zlashtirishi, o'zligini anglaydigan, axloqiy va ma'naviy kamolotga erishgan shaxslar bo'lishi kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimida muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim jarayonida ijtimoiy-metodik zaruratga aylangan. Bu ko'nikmalar o'quvchilarda ravon nutq va muloqotchanlikni shakllantirishga yordam beradi, ularni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Natijada, o'quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning shaxsiy va kasbiy shakllanishlariga katta hissa qo'shadi. Ta'lim jarayonida muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat zamonaviy talablar, balki kelajak avlodni tayyorlashning asosi sifatida qaralishi lozim.

O'quvchining olgan bilimi va tarbiyasi uning kelajakdagi hayot yo'lida, jamiyat oldidagi mas'uliyatini va uning jamiyatga qo'shadigan hissasini belgilab beradi. Uning jamiyatda o'z o'rnini topishi, kasbiy mahoratini oshirishi va jamiyat muammolariga ijobiy yechimlar taklif qila olish qobiliyati ta'limning samaradorligini belgilaydigan asosiy omillardan biridir.

Ta'lim nafaqat shaxsning o'ziga, balki butun jamiyatning taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim ijtimoiy jarayon hisoblanadi. "Ayni shu o'rinda o'quvchilarning nazariy, amaliy g'oyalarini, ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, takomillashtirish ilg'or xorijiy ta'lim dasturlarini milliy lashtirish, xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va munosiblarini tadbqiq etish,

xalqaro va xorijiy tashkilotlar tajribalaridan keng miqyosda foydalannish va ular bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda" [3].

Ta'limni to'g'ri, sifatli va samarali tashkil etish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish borasidagi amaliy jarayonlarga hukumat tomonidan qabul qilingan xalqaro tadqiqotlarni tashkil etilishi to'g'risidagi qaror "Ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyalar (IEA), nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi ta'limni shakllantirishga qaratilgan e'tiborning mahsuli ekanligini ko'rish mumkin" [4].

Zamonaviy maktab ta'limida bitiruvchilar egallagan bilimlarini mustaqil hayotda tadbqiq eta olish ko'nikmasi, nostandart vaziyatlarda tanqidiy ijodiy fikrlay olish qobiliyatini takomillashtirish, tez va to'g'ri qarorlar qabul qila olish imkoniyatini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. Aynan bu talablar xalqaro PISA, PIRLS hamda TIMSS kabi dasturlarni milliy o'qitish tizimimini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Shu kabi islohotlar negizida aynan bir maqsad, ya'ni "Millat ravnaqi yo'lida izlanadigan, o'z bilim va imkoniyatlariga ishongan, dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlarga ijodiy, tanqidiy munosabat bildiradi oladigan hamda o'z manfaatlarini davlat va xalq manfaatlari bilan bir butunlikda uyg'unlashtira oladigan erkin hamda barakamol insonlarni tarbiyalash" [5] davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy shakllantiruvchi omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, o'sib kelayotgan avlodga ta'lim berishda xalq pedagogik tajribasi negizida shakllangan qadriyatlar orqali ta'lim jarayonlarini tashkil etish mavzuning ahamiyatini o'zida aks ettiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonlari bir qator yangiliklarni jumladan ta'lim oluvchilarning kasb va ixtisosliklarini aniqlab olib aynan shu ixtisosliklar talab doirasidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar aks ettirilgan erkin, tanqidiy va kreativ fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan innovatsion ta'limiy dasturlarni, o'qitish tizimlarini talab etmoqda.

Tadqiqotchi olimlar Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova hamda D.Xojimuhamedovalar pedagogik jarayonni aksiologik baholash mobaynida o'quvchining iqtidori, qobiliyati, iste'dodi va o'ziga hos individualligini noyob xodisa sifati qaraydilar [6]. Taraqqiy etib borayotgan jamiyatda ta'lim oluvchi shaxsiga nisbatan bunday fenomenning berilishi "men konsepsiya"si asosida ham milliy ham umummadaniy bilimlarga, qadriyatlarga tayanib zamonaviy shaxsni tarbiyalashda innovatsion o'qitish tizimini joriy etishni talab qiladi.

Ta'limni tashkil etishda asosiy omil sifatida qaralayotgan pedagogik qadriyatlar negizida innovatsion ta'lim tizimini tashil etishda quyidagi faoliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

O'quvchilarni qiziqishi va qobiliyatini aniqlab olish;
Shaxsning jamiyat hamda davlat taraqqiyotiga qo'shadigan hissasini shakllantirish;
daxldorlik hissinini uyg'otish;
Ijtimoiy munosabatlar o'rnatish jarayonini qadriyatlar asosida tashkil etish;

Ijodiy, tanqidiy, kreativ, kollobarativ fikrlashni ma'naviy madaniy estetik saviya asosida shakllantirish;

O'zini o'zi diagnostik korreksiyalash orqali tezkor va aniq qarorlar qabul qilishga o'rgatish .

Xulosa va takliflar. Globallashuv va raqamlashuv davrida o'quvchilarni aksiologik yondashuvlar asosida tarbiyalash zarurati ortib bormoqda. Mazkur zaruratni bir qator

ilmiy farazlar bilan izohlab o'tmoqchimiz. Birinchi navbatda, globallashuv jarayonida turli madaniyatlar va qadriyatlar bir-biriga integratsiyalashmoqda, bu esa o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, global muhitda muvaffaqiyatli muloqot qilish imkonini yaratadi. Ikkinchidan, raqamlashuv va global integratsiya sharoitida o'quvchilar ijtimoiy munosabatlarda yangi qiyinchiliklarga duch kelishadi, shuning uchun aksiologik yondashuvlar orqali tarbiya berish, ularning empatiya, hurmat va samimiyat kabi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish imkonini beradi. Uchinchi faraz, raqamli asrda axborotning ko'pligi tanqidiy fikrlash qobiliyatini talab etadi; aksiologik yondashuvlar o'quvchilarga axborotlarni tahlil qilish va ularning ishonchliligini baholashga yordam beradi. To'rtinchi nuqtada, o'quvchilarning shaxsiy qadriyatlari va maqsadlarini aniqlash ularning o'zini o'zi anglashiga va shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Beshinchi jihatdan, globallashuv jarayonida turli madaniyatlardan kelib chiqqan qadriyatlar bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun o'quvchilarga bag'rikenglik va madaniy xilma-xillikka

hurmat bilan qarashni o'rgatish juda muhimdir. Oltinchi faraz esa, raqamli asrda innovatsiyalar va yangi g'oyalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, aksiologik yondashuvlar o'quvchilarda ijodkorlikni rag'batlantirib, innovatsion fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Yettinchi nuqtada, o'quvchilarni jamoaviy ishda ishtirok etishga tayyorlash va boshqalar bilan hamkorlik qilishga o'rgatish global muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Sakkizinchi jihatdan, raqamlashuv jarayonida axborot xavfsizligi masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda, shuning uchun o'quvchilarga aksiologik yondashuvlar orqali axborot xavfsizligi va etikasi haqida tarbiya berish zarur. To'qqizinchi faraz, muloqot madaniyatini shakllantirishda aksiologik yondashuvlar muhim rol o'ynaydi, bu esa o'quvchilarni samarali muloqot qilishga o'rgatadi. Nihoyat, globallashuv va raqamlashuv jarayonlari kelajakda yangi imkoniyatlar bilan birga muammolarni ham keltirib chiqarmoqda, shuning uchun o'quvchilarni aksiologik yondashuvlar asosida tarbiyalash, ularga kelajakdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarga moslashish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
 2. Абдулвахабова Б.А., Магомедова П.К. Проблемы современного педагогического образования. – Сборник научных трудов: – Ялта: рию Гпа, 2024. вып. 85. ч. 4. –С. 516.
 3. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. –Т.: Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти, 2015. 160-б.
 4. Matkarimov M.A. "PISA" xalqaro o'quvchilarining savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari. // "Zamonaviy ta'lim" №8(93) 2020.
 5. Shayxova X.A. Ma'naviyat – kamolot ko'zgusi. – T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2009. 115-b.
 6. Ibodullayev Q.M. Umumta'lim maktablarida xalqaro baholash dastur talablari asosida o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) Dissertatsiya. 2023. –Chirchiq: 296-b.
- REZYUME.** Ushbu maqolada dunyoda muloqot madaniyati, samarali muloqot o'rnatish yoki muloqotga kirishish jamiyatning ajralmas me'zonlaridan biri bo'lib bormoqda. Dunyoning eng ilg'or mamlakatlari ta'lim tizimlaridan, ta'lim sohasidagi innovatsion va integratsion yutuqlaridan, jahon ekspertlarining pedagogik metodlari hamda mahoratlaridan samarali foydalanish orqali sifatli ta'lim muhitini tashkil etish har bir shakllanayotgan mamlakat ta'lim tizimining ustuvor strategik maqsadlaridan biri bo'lib kelayotganligi, o'quvchilarning muloqot madaniyatini aksiologik yondashuvlar asosida shakllantirish muhimligi haqida fikrlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается, что культура общения, установление эффективного общения или вступление в общение становятся неотъемлемыми критериями общества. Организация качественной образовательной среды через эффективное использование передовых систем образования ведущих стран мира, инновационных и интеграционных достижений в области образования, педагогических методов и навыков мировых экспертов является одной из приоритетных стратегических целей образовательных систем развивающихся стран. В статье также подчеркивается важность формирования культуры общения у учащихся на основе аксиологических подходов.

SUMMARY. This article discusses how communication culture, establishing effective communication, or engaging in communication are becoming integral criteria of society. The organization of a quality educational environment through the effective use of advanced educational systems of leading countries, innovative and integrative achievements in the field of education, pedagogical methods, and skills of global experts has become one of the priority strategic goals of the educational systems of developing countries. The article also emphasizes the importance of forming communication culture in students based on axiological approaches.